

Guruh murabbiylari ijaradagi talabalar xonadonida

“Yer resurslarini boshqarish” fakultetida faoliyat olib borayotgan guruh murabbiylar, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy holati, darsdan keyin bo’sh vaqtlarini qay tartibda tashkil etilganligi va yashash ahvolini muntazam o’rganish va kerakli amaliy yordam berish maqsadida ijarada yashayotgan talabalar xonadonlariga borishdi.

Har bir guruh murabbiylari o’zlariga birlashtirilgan guruhidagi ijarada istiqomat qilayotgan talabalar xonasiga borib, xususan, dam olish, ovqatlanish, dars tayyorlash uchun sharoitlarning mavjud yoki yo’qligini nazoratdan o’tkazdilar va aksincha sharoit mavjud bo’lmagan talabalarga amaliy yordam berdilar. Belgilangan vazifalar bo’yicha har chorak muntazam o’rganish uchun xonadon sohibi bilan kelishib olindi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov